

**TIJORAT BANKLARIDA KREDIT OPERATSIYALARI HISOBİ VA
TAHLILINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'LLARI**

Axmetova Nasiba Axmetovna

Student of Tashkent State University of Economics

Annotatsiya: Mazkur maqolada tijorat banklarida kredit operatsiyalarining buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlilini modernizatsiya qilish masalalari o'rganildi. Unda kreditning mohiyati, asosiy turlari va tijorat banklari faoliyatidagi o'rni tahlil qilinib, kredit siyosatini takomillashtirish orqali banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy faollikni oshirish yo'llari ko'rib chiqildi. Tadqiqot davomida tahliliy, statistik, empirik, huquqiy va komparativ metodlardan foydalanildi. O'zbekiston va xorijiy davlatlar tajribasi asosida amaldagi kreditlash amaliyotida mavjud muammolar, risklarni boshqarishdagi zaif jihatlar hamda buxgalteriya hisobi standartlarini takomillashtirish zarurati asoslab berildi. Natijada, kredit portfelini diversifikatsiya qilish, muammoli kreditlarni kamaytirish va hisob-kitob tizimlarini raqamlashtirish orqali tijorat banklarining samaradorligini oshirish mumkinligi ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: kredit, tijorat banki, buxgalteriya hisobi, moliyaviy tahlil, kredit portfeli, muammoli kreditlar, risklarni boshqarish, raqamlashtirish, bank siyosati, moliyaviy barqarorlik

Kirish:

Kredit bu qarz mablag'larini vaqtincha foydalanish huquqi asosida taqdim etiladigan moliyaviy munosabat bo'lib, u bir nechta asosiy xususiyatlarga ega. Avvalo, har qanday kredit operatsiyasi qaytarilish shartiga asoslanadi, ya'ni qarz oluvchi kreditni belgilangan muddatda va shartlar asosida to'liq qaytarishi kerak. Bunga qo'shimcha ravishda, kredit odatda foiz bilan beriladi, bu esa kreditorga mablag'dan foydalanish evaziga daromad olish imkonini beradi. Kredit muddati muhim ahamiyatga ega bo'lib, u qisqa, o'rta yoki uzoq muddatli bo'lishi mumkin. Har bir kredit ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi, bu esa uning sarflanish yo'nalishini aniqlab beradi. Bundan tashqari, kreditning yana bir muhim xususiyati – bu uning qaytarilishini ta'minlash vositalari mavjudligi, ya'ni garov, kafillik yoki sug'urta kabi mexanizmlar yordamida kreditor o'z mablag'larini qaytarib olish xavfsizligini ta'minlaydi. Shu tarzda, kredit moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy faollikni oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Kreditning bir qancha turlari mavjud bo'lib, ular turli xil vazifalar uchun mo'ljallangan. Masalan:

- **Iste'mol krediti** – jismoniy shaxslar tomonidan tovar va xizmatlar xaridi uchun olinadi.
- **Biznes krediti** – yuridik shaxslarga yoki yakka tartibdagi tadbirkorlarga biznesni yuritish yoki kengaytirish uchun beriladi.
- **Ipoteka krediti** – ko'chmas mulk xarid qilish uchun uzoq muddatli kredit.
- **Avtokredit** – avtomobil xaridi uchun olinadigan kredit.
- **Overdraft** – bank kartasidagi mavjud mablag'dan ko'proq pul ishlatishga imkon beruvchi qisqa muddatli kredit.

Tijorat banklari har qanday mamlakat moliyaviy tizimining asosi bo'lib, ular jamg'armalarni jalb qilish, moliyaviy vositachilikni amalga oshirish va xo'jalik yurituvchi subyektlarga kredit ajratish orqali iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi. Banklarning samarali faoliyati ularning kredit siyosatiga bog'liq bo'lib, ushbu siyosat iqtisodiy sharoitlar, risklarni boshqarish va kreditlash strategiyalariga asoslanadi. Kredit siyosatini takomillashtirish nafaqat banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, balki iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tijorat banklar tomonidan kredit berish yanada kengiyib bormoqda. Ular davr taraqqiyoti bilan shahdam qadam tashlash maqsadida hamda raqobat kurashiga bardosh bera olishda o'z xizmat turlarini ko'paytirishlari va rivojlantirishlari shart. Bu o'z navbatida tijorat banklari xususiy kapitalining milliy va halqaro standartlar darajasiga yaqinlashtirish bo'yicha ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tadqiqotlar olib borilishini taqazo etmoqda. Kredit operatsiyalarini amalga oshirishda muammoli kreditlarning yuzaga kelishi, ularning buxgalteriya hisobini xalqaro standartlari talablari asosida tartibga solishni zaruriyat qilib qo'ymoqda. Ushbu zaruriyatdan kelib chiqib, tijorat banklarida kreditlar bo'yicha to'lash va ehtimoliy yo'qotishlar zahiralarini jarayolari hisobini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlarni o'rganish:

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti Behzod Rustamovning fikricha, banklar tomonidan ajratilayotgan kreditlarning tarmoqlar bo'yicha taqsimoti izchil diversifikatsiya qilinmagan. Ayrim tarmoqlar ortiqcha kreditlash natijasida haddan tashqari qarz yuklamasiga ega bo'lishi mumkin, bu esa iqtisodiy barqarorlikka xavf tug'diradi. Ayniqsa, kichik va o'rta biznes uchun kredit olish imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb bo'lib qolmoqda. Tijorat banklarida kredit siyosatini takomillashtirish iqtisodiy barqarorlik va moliyaviy tizimning samarali ishlashini ta'minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Kredit siyosatining optimal yuritilishi banklarning daromadlilikini oshirish, mijozlarga qulay kredit shartlarini taqdim etish va risklarni minimallashtirishga xizmat qiladi.

Boltaboyev Javlonbek Nurali o'g'lining tadqiqotiga ko'ra tijorat banklari kredit portfelini boshqarish samaradorligini oshirish uchun risklarni boshqarish mexanizmlarini kuchaytirish, raqamlashtirishni keng joriy etish va xalqaro tajribadan foydalanish zarur. Kredit portfelini optimallashtirish orqali bank faoliyatini samarali boshqarish, tavakkalchiliklarni minimallashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash mumkin. Kredit portfelini boshqarish jarayonida qo'llaniladigan usullar turlicha bo'lib, ular kredit tahlili, tavakkalchilikni baholash indikatorlari va strategik boshqaruv mexanizmlariga asoslanadi. Kompleks yondashuvlar yordamida kredit portfelining holati chuqur tahlil qilinib, samaradorlikni oshirish yo'nalishlari aniqlanadi.

Nafisa Meliboyevaning fikriga ko'ra. Ipoteka kreditlash iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, fuqarolarning uy-joy sharoitlarini yaxshilash bilan birga, moliyaviy barqarorlik va bank sektorining rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Ammo, amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonda tijorat banklarida ipoteka kreditlash tizimi hali ham takomillashtirishni talab qiladigan qator muammolar bilan duch kelmoqda. Ushbu bo'limda ipoteka kreditlash tizimining hozirgi holati, tijorat banklarining roli va mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Ipoteka kreditlash har qanday mamlakatda iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashning muhim instrumenti hisoblanadi.

Metodologiya:

Ushbu tadqiqotda tijorat banklarida kredit operatsiyalarining buxgalteriya hisobini va moliyaviy tahlilini modernizatsiya qilish yo'llari o'rganilib, mavjud amaliyotlar asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Maqsadga erishish uchun quyidagi ilmiy tadqiqot metodlari va yondashuvlardan foydalanildi:

Tahliliy yondashuv. Tijorat banklarining amaldagi kredit operatsiyalari, ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish usullari, hamda moliyaviy tahlil jarayonlari chuqur tahlil qilindi. Kreditlar bo'yicha hisobotlar, balans va moliyaviy ko'rsatkichlar asosida ularning samaradorligi baholandi. Mazkur tahlil orqali hozirgi kredit operatsiyalari tizimidagi kamchiliklar, samaradorlikni cheklovchi omillar aniqlab olindi. **Empirik tadqiqot usuli.** Tadqiqotda real amaliyotga asoslangan ma'lumotlardan foydalanildi. Jumladan, bir nechta yirik tijorat banklarining ochiq manbalardagi yillik moliyaviy hisobotlari, kredit portfeli tuzilmasi, kechiktirilgan kreditlar ulushi va boshqa muhim ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Bu orqali kredit operatsiyalarining moliyaviy natijalarga ta'siri o'rganildi. **Taqqoslash (komparativ) tahlil.** Mahalliy tijorat banklarining kredit operatsiyalari amaliyoti va ularning hisobini xorijiy mamlakatlardagi ilg'or tajribalar bilan solishtirish orqali samarali


TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VI son, May

yondashuvlar aniqlab chiqildi. Xususan, AQSh, Germaniya, Rossiya, Turkiya va boshqa mamlakatlardagi tijorat banklarining kredit siyosati, buxgalteriya hisob standartlari va risklarni baholash tizimlari o'rganildi. **Ilmiy-adabiyotlar tahlili.** Tadqiqot davomida kredit operatsiyalari, ularning hisobini yuritish, moliyaviy tahlil va bank amaliyotini modernizatsiyalashga oid ilmiy maqolalar, darsliklar, dissertatsiyalar va xalqaro tashkilotlar (IMF, WB, BIS) hisobotlaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama:

Joriy yilning o'tgan davrida bank tizimi asosiy ko'rsatkichlarida ijobiy o'sish sur'atlari saqlanib, maqbul darajadagi moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari doirasida iqtisodiyotning kreditga bo'lgan talabi qondirilmoqda, deya qayd etdi Markaziy bank. Qayd etilishicha, banklar tomonidan iqtisodiyotga 2021 yilning yanvar-sentabr oylarida 119,5 trln so'm miqdorida yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 32,8 foiz ko'proq kredit ajratilgan.




Mazkur kreditlarning asosiy qismi, ya'ni 91 trln so'mi (76 foizi) tadbirkorlik subyektlariga (korporativ mijozlar) ajratilgan bo'lib, ularning 66 trln so'mi uzoq muddatli investitsion loyihalarga va 25 trln so'mi revolver asosida xo'jalik faoliyati uzluksizligini ta'minlashga yo'naltirilgan. Aholini iste'mol ehtiyojlarini qondirish va daromadli mehnat bilan band bo'lish maqsadlariga jami 29 trln so'm yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 46 foiz yoki 9,2 trln so'm ko'proq kreditlar yo'naltirilgan.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VI son, May

Аҳолига ажратилган кредитлар қолдиғи



Aholiga ajratilgan jami kreditlar qoldig'i joriy yilning 9 oyi davomida 11 trln so'm yoki 20 foizga oshib, 2021 yilning 1 oktabr holatiga 66 trln so'mni tashkil etgan.

Xulosa:

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida kredit operatsiyalarining buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlilini zamonaviy talablar asosida modernizatsiya qilish zaruriyati mavjud. Amaldagi kreditlash siyosati ko'plab holatlarda to'liq diversifikatsiyalanmagan bo'lib, ayrim tarmoqlar ortiqcha kredit yuklamasiga duch kelmoqda. Bundan tashqari, muammoli kreditlarning ko'payishi, ularning hisobini yuritishdagi kamchiliklar, xalqaro standartlardan chetlashish holatlari mavjud. Shuningdek, ipoteka kreditlash tizimi, kichik va o'rta biznes subyektlariga berilayotgan kreditlar sifati va ularning monitoringi doimiy e'tiborni talab qiladi. Shu sababli, kredit hisobini raqamlashtirish, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga moslashtirish, kredit portfelini diversifikatsiya qilish, risklarni baholash tizimlarini joriy etish va malakali kadrlarni tayyorlash orqali banklarning kredit siyosatini takomillashtirish muhim vazifalardan biridir. Mazkur tadqiqot banklar uchun ushbu yo'nalishlarda strategik qarorlar qabul qilishda nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rustamov, B. (2025). TIJORAT BANKLARIDA KREDIT SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(2), 50-55.
2. Nurali o'g'li, B. J. (2025). TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISH YO'LLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 62(5), 3-11.
3. Melibaeva, N. (2025). TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH. *Журнал академических исследований нового Узбекистана*, 2(2), 96-101.
4. Olimjon o'g'li, O. S., & Xotamov, K. (2024). TIJORAT BANKLARIDA NAQD PULSIZ HISOB-KITOBLAR HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 3(25), 92-96.
5. Zubaydullayeva, Z., & Kaxarova, D. (2024). O 'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanishida tijorat banklarining o 'rni. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 1(5).
6. Xudayarova, X. (2024). Tijorat banklarida raqamli transformatsiya jarayoni, undagi muammolar va ularni yechish yo 'llari. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 1(4).